

MILLIY MUSIQA SAN'ATI ORQALI YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Iskandarova Dilnoza Tolibjon qizi

Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti

Tayanch so'zlar: milliy musiqa, ma'naviy tarbiya, yoshlar, pedagogika, cholg'u, kuy, qadriyat, metodika, ustoz-shogird, innovatsiya.

Ключевые слова: национальная музыка, духовное воспитание, молодежь, педагогика, музыкальный инструмент, мелодия, ценность, методика, наставник–ученик, инновация.

Key words: national music, spiritual education, youth, pedagogy, instrument, melody, value, methodology, teacher-student, innovation.

KIRISH. Keyingi paytlarda insoniyat taqdiridan xavotirga tushgan minglab ma'rifatparvarlar, ziyolilar dunyoni faqat va faqat ma'naviyat, ma'rifat qutqaradi, shuning uchun ham "ma'rifatli dunyo"ni barpo etish jahon afkor ommasining eng ustuvor vazifasi bo'lishi kerak deb bong urmoqda [1:3]. Chunki, insoniyat tarixida ma'naviyat har doim jamiyat taraqqiyotining tayanchi va kishilik jamiyati mavjudligining asosiy ma'no-mazmunini belgilab beruvchi omil bo'lib kelgan. Har bir xalqning ma'naviy dunyosi, urf-odatları, qadriyatlari va dunyoqarashi asrlar davomida shakllangan madaniy meros orqali ifoda etiladi. Ana shunday bebaho boyliklardan biri – xalq og'zaki ijodi, musiqa san'ati va uning milliy cholg'ular san'ati hisoblanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning milliy o'ziga xosligi, ma'naviy immuniteti va madaniy qadriyatlarga hurmati muhim ahamiyat kasb etmoqda [2:46]. Sababi, hozirgi axborotlashgan dunyoda yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi eng muhim ijtimoiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Texnologiya tez sur'atlar bilan rivojlanib, chet el madaniy oqimlari kuchayib borayotgan bir paytda, o'z milliy qadriyatlarimizga, ayniqsa, milliy musiqa san'atiga bo'lgan munosabatni mustahkamlash, uni yoshlarga chuqur singdirish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismiga aylanishi zarur. Zero, ma'naviy tarbiya faqat odob-axloq saboqlari emas, balki qalbni tarbiyalash, inson ichki dunyosini uyg'otish, uni ezgulik sari yo'naltirish demakdir. Milliy musiqa esa bu borada o'ziga xos nozik va ta'sirchan vositadir.

Xususan, o'zbek milliy musiqa san'ati oddiygina tovush va kuylar ketma-ketligi emas, balki xalqimizning ming yillik tarixiy tajribasi, orzu-umidlari, g'am-tashvishlari va ruhiy olamining badiiy in'ikosidir. Bu san'at turida xalqimizning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, hayotga bo'lgan munosabati va ichki ruhiyati mujassam. Milliy musiqa kuylarida tarixning

izlari, ajdodlarimizning ovozi, ulkan ruhiy meros yashiringan. Ular nafaqat eshitiladi, balki qalb bilan his qilinadi, ichki dunyo bilan tushuniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek milliy musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, bugungi kungacha u o'zining ma'naviy va moddiy qudratini saqlab kelmoqda [3:4]. Mumtoz musiqalar, asosan, milliy qadriyatlarni, axloqiy va estetik ta'limotlarni yosh avlodga yetkazishda muhim rol o'ynaydi [4:199]. Misol uchun, milliy cholg'umiz dutor ohangida samimiyat va sokinlik mujassam bo'lib, u insonni ichki sukunatga chorlaydi, qalbida iliqlik uyg'otadi. Dutorning toridan chiqqan oddiy, ammo chuqur ma'noli ohanglar ko'p hollarda xalq ruhiyatining asl ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi. Bu cholg'u vositasi orqali ijro etilgan kuylar insonni o'z ichki dunyosiga nazar tashlashga, hayotning go'zalliklarini anglashga undaydi. Milliy maqom kuylarimizda esa o'zining murakkab tuzilishi va falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Ular nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki tinglovchini fikrlashga, tafakkur qilishga chorlaydi. Maqomda hayotning turli bosqichlari, insoniy kechinmalar, ruhiy iztiroblar va yuksalishlar mujassam. Uning har bir bo'lagi, ohang o'zida chuqur falsafiy fikr, ma'naviy anglash va badiiy ifodani jamlagan. Shu bois maqom kuylarini tinglash, ayniqsa, yosh avlodni hayot mohiyatini anglash, sabr-toqat, fidoyilik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlariga undaydi. Doira sadosida esa xalqimizning yurak urushi, quvonchu g'amga to'la hayotiy ritmi yashiringan. Bu cholg'u vositasi nafaqat ritmik funksiyani bajaradi, balki marosimlarda, bayramlarda, turmushda o'ziga xos ruhiy kayfiyatni uyg'otadi. Ayniqsa, doira sadosi orqali ijro etilgan an'anaviy kuylar milliy birlik, mehr-oqibat, hamjihatlik kabi qadriyatlarning amaliy ifodasidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, milliy musiqaning har bir tovushi, ohangi va ritmi tasodifiy emas u xalq ruhiyatining ma'naviy

qiyofasidir desak, adashmagan bo‘lamiz. U orqali o‘zlik anglanadi, milliy g‘urur uyg‘onadi, madaniyatga, tarixga, ona yurtida bo‘lgan mehr yanada mustahkamlanadi. Yosh avlod qalbiga ushbu musiqiy merosni singdirish orqali nafaqat estetik did, balki ruhiy yetuklik, axloqiy poklik, insoniy qadriyatlarga sadoqat kabi xislatlar shakllanadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, yoshlarning ichki dunyosini boyitish, ularni ezgulik, go‘zallik va milliy o‘zlikka hurmat ruhida tarbiyalash milliy musiqa san‘atining tarbiyaviy imkoniyatlari nihoyatda kengroqdir. Chunki, musiqa inson qalbining tili, uning nozik kechinmalarini ifodalovchi vosita bo‘lishi bilan birga, ruhiy poklanish, estetik sezgi, axloqiy tafakkur va ma‘naviy uyg‘oqlikni shakllantiruvchi kuchga ega. Ayniqsa, o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan musiqiy merosi faqat san‘at emas, balki ma‘naviyat maktabidir.

Milliy musiqa orqali ma‘naviy tarbiya samarali bo‘lishi uchun u avvalo ta‘lim tizimiga chuqur integratsiyalashgan bo‘lishi kerak. Bu borada maktab va oliy ta‘lim muassasalarida milliy musiqa o‘qitilishi, uning dasturlarda tutgan o‘rni, darslarning sifatli tashkil etilishi, o‘qituvchilarning kasbiy-ma‘naviy salohiyati alohida e‘tiborga molikdir. Chunki o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodga ma‘naviyat urug‘ini qadaydigan, musiqaning ichki mohiyatini his qildiradigan, estetik zavq bag‘ishlaydigan yetakchi shaxsdir. Aynan u orqali milliy cholg‘ular, kuylar, an‘anaviy musiqa asarlarining ruhiy va tarbiyaviy kuchi o‘quvchining qalbiga yetib boradi. Shuningdek, ta‘lim muassasalarida milliy cholg‘ular va kuylardan amaliy foydalanish tajribalari ham yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. To‘garaklar, ijodiy mashg‘ulotlar, kuylar tahlili asosida tashkil etilgan darslar nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchilarda musiqiy did, madaniy ong va milliy o‘zlikni anglash hissini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarorining 1-ilovasida 2022–2024-yillar davomida umumta‘lim maktablari, bolalar musiqa va san‘at maktablari hamda madaniyat markazlarini milliy cholg‘u asboblari bilan ta‘minlash bo‘yicha reja asosida mamlakat bo‘yicha jami 33 837 dona cholg‘u asboblari xarid qilinishi ko‘zda tutilgan [5:1].

TAHLIL VA MUHOKAMA. Ushbu xaridlar quyidagi tarmoqlar bo‘yicha taqsimlangan:

umumta‘lim maktablari uchun – 30 390 dona, bolalar musiqa va san‘at maktablari uchun – 969 dona, va madaniyat markazlari uchun – 2 478 dona cholg‘u asboblari mo‘ljallangan. Har bir yo‘nalish bo‘yicha yillik xaridlar soni bir xil bo‘lib, uch yil davomida har yili muvozanatli ravishda taqsimlangan. Jumladan:

➤ Qoraqalpog‘iston Respublikasida umumiy hisobda 2 421 ta cholg‘u asbobi yetkazilishi belgilangan bo‘lib, shundan 2 178 tasi umumta‘lim maktablariga, 69 tasi bolalar musiqa va san‘at maktablariga, 174 tasi esa madaniyat markazlariga ajratiladi.

➤ Andijon viloyatida jami 2 601 ta asbob ajratilishi rejalashtirilgan, shundan 2 301 tasi maktablarga, 87 tasi musiqa maktablariga, 213 tasi esa madaniyat markazlariga taalluqlidir.

➤ Buxoro viloyatida 1 812 ta cholg‘u asbobi xarid qilinadi. Ularning 1 611 tasi maktablarga, 54 tasi musiqa maktablariga va 147 tasi madaniyat markazlariga yetkaziladi. Jizzax viloyatiga 1 815 ta asbob ajratilgan bo‘lib, ulardan 1 659 tasi umumta‘lim maktablariga, 45 tasi musiqa maktablariga va 111 tasi madaniyat markazlariga mo‘ljallangan.

➤ Qashqadaryo viloyatida ushbu ko‘rsatkich ancha yuqori bo‘lib, jami 3 906 ta cholg‘u asbobi taqsimlanadi. Ulardan 3 651 tasi maktablar, 75 tasi musiqa maktablari va 180 tasi madaniyat markazlari uchun ajratilgan.

➤ Navoiy viloyatiga 1 239 ta asbob ajratilgan. 1 104 tasi maktablarga, 39 tasi bolalar musiqa maktablariga, 96 tasi esa madaniyat markazlariga to‘g‘ri keladi.

➤ Namangan viloyatida jami 2 442 ta cholg‘u asbobi taqsimlanadi: 2 136 tasi umumta‘lim maktablariga, 66 tasi musiqa maktablariga, 240 tasi madaniyat markazlariga.

➤ Samarqand viloyati eng ko‘p ta‘minlangan hududlardan biri bo‘lib, bu yerda jami 4 131 ta cholg‘u asbobi ajratiladi. Ulardan 3 801 tasi umumta‘lim maktablariga, 96 tasi musiqa maktablariga va 234 tasi madaniyat markazlariga beriladi.

➤ Surxondaryo viloyatida esa 3 081 ta asbob rejalashtirilgan, jumladan 2 799 tasi maktablarga, 60 tasi musiqa maktablariga va 222 tasi madaniyat markazlariga to‘g‘ri keladi.

➤ Sirdaryo viloyatida jami 1 098 ta cholg‘u asbobi xarid qilinadi, shundan 954 tasi maktablarga, 45 tasi musiqa maktablariga va 99 tasi madaniyat markazlariga ajratilgan.

➤ Toshkent viloyatida jami 2 964 ta asbob ajratilishi belgilangan. Ulardan 2 652 tasi umumta‘lim maktablari uchun, 99 tasi bolalar

musıqa maktablari uchun, 213 tasi esa madaniyat markazlari uchun mo'ljallangan.

➤ Farg'ona viloyatida jami 3 216 ta asbob xarid qilinadi: 2 877 tasi maktablarga, 90 tasi musıqa maktablariga, 249 tasi madaniyat markazlariga yetkaziladi.

➤ Xorazm viloyatida 1 899 ta cholg'u asbobi ajratilib, 1 647 tasi umumta'lim maktablariga, 54 tasi musıqa maktablariga va 198 tasi madaniyat markazlariga ajratiladi.

➤ Toshkent shahriga esa jami 1 212 ta asbob ajratilgan bo'lib, 1 020 tasi maktablarga, 90 tasi musıqa maktablariga, 102 tasi esa madaniyat markazlariga taalluqlidir [6:1].

Umuman olganda, barcha hududlar bo'yicha har bir yil uchun tarmoqlar bo'yicha barqaror taqsimot saqlanib, milliy cholg'u asboblari ta'lim va madaniyat tizimiga chuqur integratsiyalash orqali yoshlar ongida milliy musiqaga bo'lgan qiziqish, estetik did va ma'naviy qadriyatlarini singdirish uchun zarur moddiy-texnik asoslar yaratilmoqda. Musiqaning tarbiyaviy imkoniyatlari nafaqat dars mashg'ulotlarida, balki darsdan tashqari faoliyatlarda ham keng namoyon bo'ladi. Ayniqsa, musıqa to'garaklari, kontsert dasturlari, ma'naviyat-ma'rifat tadbirlari orqali o'quvchilar nafaqat ijodiy salohiyatini namoyon qiladi, balki o'z milliy qadriyatlariga yanada yaqinlashadi [7:456]. Bunday faoliyatlar bolalarning estetik didini shakllantirib, ularning qalbida musıqa san'atiga nisbatan mehr uyg'otadi, ijodiy tafakkurini boyitadi. Shu bilan birga, musıqa orqali bolalarning nutq madaniyati, sahnada o'zini tutish odobi, jamoada ishlash qobiliyati kabi muhim kompetensiyalar rivojlanadi.

Bundan tashqari, milliy musıqa vositasida tarbiyani samarali amalga oshirishda oila va jamiyat bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlarning ahamiyati katta. Zero, bola avvalo oilada shakllanadi, uning estetik dunyoqarashi, madaniyati va didi oila muhiti ta'sirida rivojlanadi. Agar ota-onalar bolalarga milliy kuylar, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi namunalari bolalikdan singdirsa, bu ularning butun hayoti davomida mustahkam poydevorga aylanadi. Shuningdek, mahalliy jamoatchilik, madaniyat markazlari, san'at arboblari bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan tadbirlar, uchrashuvlar, musiqiy kechalar orqali yoshlarda san'atga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

Milliy musıqa asosidagi tarbiyani samarali amalga oshirishda zamonaviy pedagogik metodlar alohida ahamiyatga ega. Faol ta'lim metodlari interfaol muloqot, musiqiy amaliy mashg'ulotlar, bahs-munozaralar, guruhlarda ishlash

o'quvchining shaxsiy ishtirokini ta'minlab, musiqaning ichki mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar audio-vizual texnologiyalar, raqamli platformalarda milliy kuylar arxivini yaratish, virtual musiqiy darsliklar va ilovalar orqali musiqiy tarbiyani yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

“Ustoz-shogird” an'analari – yoshlarda kasbiy mahoratni tarbiyalash, ularning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirish, izlanish, ijod qilish, bir so'z bilan aytganda, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi bilan katta ahamiyat kasb etadi [8:477].

XULOSA. Ayniqsa, ustoz-shogird an'anasi esa bu sohada tarixan samarali bo'lib kelgan, milliy musiqiy merosni amaliy yo'l bilan uzatish, hissiy tajriba va ruhiy holatlarni bevosita o'rgatishga asoslangan noyob pedagogik modeldir. Bu ana orqali nafaqat musıqa o'rgatiladi, balki milliy ruh, musiqiy odob, sahna madaniyati, san'atga mehr va fidoyilik singari fazilatlar yosh avlodga singiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

✓ Milliy musıqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlarini to'liq ochib beruvchi ta'lim dasturlari va metodik qo'llanmalarni yaratish hamda ularni umumta'lim va san'at sohasidagi ta'lim tashkilotlariga joriy etish lozim.

✓ Musıqa fanini o'qitishda interfaol usullar, musiqiy ijodkorlik mashg'ulotlari, sahna ko'rinishlari, muhokama va tahlil asosida olib boriladigan dars shakllarini keng joriy etish kerak.

✓ Yoshlar orasida milliy cholg'u asboblari va kuylar bo'yicha tanlovlar, festivallar, amaliy seminarlar, mahorat darslarini muntazam tashkil qilish orqali ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish mumkin.

✓ Maktabdan tashqari darslar, musıqa to'garaklari, folklor ansambllar, konsertlar orqali milliy musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish lozim.

✓ Musıqa ta'limida zamonaviy texnologiyalar, raqamli resurslar, audio va video materiallardan foydalanish orqali yoshlarning milliy musiqaga bo'lgan qiziqishini oshirish tavsiya qilinadi.

✓ Pedagog kadrlarning milliy musıqa san'atini chuqur o'zlashtirishi, ma'naviy tarbiya jarayonini puxta tashkil etishi uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslari, ilmiy-amaliy seminarlar tashkil etilishi zarur.

✓ Milliy musıqa orqali yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish samaradorligini

baholash bo'yicha monitoring tizimini yo'lga qo'yish, ilmiy-tadqiqotlar asosida yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy musiqa san'ati orqali ma'naviy tarbiyani amalga oshirish murakkab, lekin chuqur mazmunga ega pedagogik jarayondir. Bu jarayon o'zida nafaqat musiqa o'rgatishni, balki uning tarbiyaviy, estetik

va ma'naviy kuchini to'liq ochib berishni, zamonaviy vositalar bilan boyitishni va pedagogik shart-sharoitlarni to'g'ri tashkil etishni talab qiladi. Ana shundagina milliy musiqaning beqiyos tarbiyaviy imkoniyatlari to'liq ishga solinadi va yosh avlod qalbida sog'lom ma'naviyat, milliy g'urur va mustahkam ruhiy poydevor shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavrlov A.A. Mustaqillik va ma'naviyat // Gazeta "Yangi O'zbekiston". – 2025. – №164. – B. 3.
2. Dadayev A.Sh. Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ma'naviyatini oshirishda musiqa san'atining o'rni // "Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ma'naviyatini oshirishda musiqa san'atining o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2025. – 300 b.
3. Malikova S. O'zbek milliy musiqa madaniyati rivojlanish tendensiyalari: kecha, bugun, istiqboli: monografiya. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2024. – 140 b.
4. Arabov I. Yosh avlodni tarbiyalashda o'zbek milliy mumtoz musiqasining ahamiyati // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – T. 2. – №12. – B. 198–202.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-112-son qarori.
6. O'sha manba. 1-ilova. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5849580#-5849795> (murojaat sanasi: 22.10.2025).
7. Hasanov G'. The role of national musical art in preserving and strengthening values // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2025. – T. 5. – №4. – B. 456–460.
8. Sobirov N.X. Ustoz-shogird an'analarida pedagogikaning o'rni // Oriental Art and Culture. – 2023. – T. 4. – №3. – B. 477–481.
9. Xudoyev G'. Musiqa to'garaklarida o'zbek milliy cholg'ularini o'rganish: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Javohir-ilm-nashr, 2024. – 208 b.
10. Jumayev S. Ways of improving creative components of future music teacher // Eastern European Scientific Journal. – 2018. – B. 99–102.

REZYUME. Mazkur maqolada milliy musiqa san'atining yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rni va pedagogik imkoniyatlari tahlil etilgan. Undan tashqari, ta'lim jarayonlarida milliy cholg'ular, kuylar va qadriyatlar asosida tarbiyaviy jarayonni tashkil etish yo'llari hamda innovatsion metodlar va ustoz-shogird an'anasining zamonaviy ta'limdagi ahamiyati haqida atroflicha mulohaza yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются роль и педагогические возможности национального музыкального искусства в духовном воспитании молодежи. Кроме того, подробно рассматриваются пути организации воспитательного процесса на основе национальных инструментов, мелодий и ценностей, а также значение инновационных методов и традиции «учитель – ученик» в современном образовании.

SUMMARY. This article analyzes the role and pedagogical potential of national musical art in the spiritual education of youth. In addition, a detailed discussion is given on the ways of organizing the educational process based on national instruments, melodies and values in educational processes, as well as innovative methods and the importance of the teacher-student tradition in modern education.